

Salimov Umidjan Zakirdjanovich - biografiyasi va vazifalari

[BoshRahbariyat](#) Salimov Umidjan Zakirdjanovich - biografiyasi va vazifalari

Toshkentda 1976 yilda tug'ilgan.

Millati - o'zbek.

Ma'lumoti - oliy; 1998-yilda Toshkent davlat texnika universitetini "Muhandis-dizayner" yo'nalishi bo'yicha tamomlagan;

2007 yilda Toshkent avtomobil va yo'llar institutida aspiranturani tamomlagan, texnika fanlari nomzodi;

1998 yildan 1999 yilga qadar "Avtodayjest" gazetasida ijrochi kotibi bo'lib ishlagan;

1999 yildan 2000 yilgacha "O'zavtosanoat" uyushmasiga qarashli «Avtosaninvestproekt» korxonasi yetakchi mutaxassisi bo'lib ishlagan;

2000 yildan 2004 yilgacha - "O'zavtosanoat" uyushmasining moliyaviy-iqtisodiy ekspertiza va kredit bo'yicha yetakchi mutaxassisi bo'lib ishlagan;

2004-2005 yillarda Chonnam Milliy Universitetida (Seul, Koreya Respublikasi) stajirovka o'tagan;

2005-2007 yillarda "O'zavtosanoat" AKning marketing boshqaruvi, savdo strategiyasi va eksportini rivojlantirish salohiyati mutaxassisi bo'lib ishlagan;

2007-2009 yillarda "GM Uzbekistan" YoAJ yangi loyiha boshqarish bo'limi bosh menedjeri;

2009-2011 yillarda "GM Power-Train Uzbekistan" YoAJ bosh direktori o'rinbosari;

2011-2013 yillarda "O'zavtosanoat" AK raisining o'rinbosari;

2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim markazi direktori, O'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari;

2017 yil apreldan boshlab "O'zavtosanoat" AJ Texnik siyosati va mahalliyashtirish bo'yicha boshqaruv raisi o'rinbosari.

2017-2018 yillarda "O'zavtosanoat" AJ boshqaruv raisi.

2017 yil iyun oyidan boshlab "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisining rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari.

Oilali, bir qizi va bir og'li bor.

Salimov Umidjan Zakirdjanovich - "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisining rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari

Nazoratga olinadigan masalalar:

- Ichki va tashqi bozorlarning marketing tahlillarini o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
- Kompaniyaning uzoq va qisqa muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish;
- Xorijdagi savdo tarmoqlari orqali kompaniya mahsulotlarini xorijiy bozordagi sotuvini kengaytirish va dilerlik tarmoqlarini rivojlantirish;
- Mahsulot eksportini tashkil etish va rivojlantirish, eksport shartnomalari tuzish;
- Amalga oshiriladigan eksport jo'natmalarining tahlili va bu orqali valyuta mablag'lari kirimini ta'minlash;

- Kompaniyaning tashqi iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtirish;
- O'zaro hamkorlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash;
- Turli xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik;
- O'zbekiston Respublikasi hududida yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun yirik sarmoyadorlar va hamkorlarni topish;
- Rahbarlikni amalga oshirishdan tashqari kompaniya boshqaruvi va kengash yig'ilishlarida belgilangan muddatda barcha zaruriy hujjatlarni tayyorlash.